**«TASDIQLAYMAN»**
Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori, professor

__________ A.K. Shadmanov
«15» sentyabr 2021 yil

**Toshkent tibbiyot akademiyasi**
**Rektorat yig'ilishining**
**1-sonli BAYONI**

Toshkent shahar «15» sentyabr 2021 yil

**Raislik qiluvchi: A.K.Shadmanov** **Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori, professor**

**Qatnashdilar:** **Toshkent tibbiyot akademiyasining rektorat kengashi a'zolari** (ro'yxat bo'yicha)

## K U N  T A R T I B I

1. Raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etilishi, vazifalar va rejalar (HEMIS tizimini joriy etilishi, kafedralarni oldidagi vazifalar, veb saytlari holati.

**Ma'ruzachi** – Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i Abrorjon Kamolitdinovich Musaxonov.

2. 2020/2021 o'quv yilida Toshkent tibbiyoti akademiya fakultet va kafedralarining ilmiy, o'quv va o'quv-uslubiy ishlari bo'yicha yillik monitoring natijalari.

**Ma'ruzachi** – O'quv ishlari bo'yicha prorektor Boymurodov Shuxrat Abdujalilovich.

3. Akademiya Ilmiy Kengashi qarorlarining bajarilishi holati va ijro intizomi.

**Ma'ruzachi** – Jismoniy va yuridik shahslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i Madjidov Alisher Shavkatovich.

4. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

| | |
|---|---|
| O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor | Sh.A.Boymuradov |
| Ilmiy va innovatsion ishlar bo‘yicha prorektor | F.L.Azizova |
| Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor | T.A.Bobomuratov |
| Davolash ishlari bo‘yicha prorektor | M.Sh. Karimov |
| O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i | Sh.Sh.Massavirov |
| Yuriskonsult | B.N.Shukurov |

## Q A R O R  Q I L A D I:

1. Kun tartibining birinchi masalasi - **Raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etilishi, vazifalar va rejalar** (HEMIS tizimini joriy etilishi, kafedralarni oldidagi vazifalar, veb saytlari xolati) mavzusida Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i A.K.Musaxonov ma'ruza qildi.

Ma'ruza axborot va ijro uchun qabul qilinsin.

TTAda HEMIS tizimini samarali tadbiq etilishi maqsadida barcha bo'lim, kafedra mudirlari va professor-o'qituvchilariga quyidagi vazifalar yuklatilsin:

**Xodimlar bo'limi boshlig'i v.v.b. F.X.Azizova va kaferda mudirlariga:**

- axborot tizimining "OTM strukturasi" hamda "Xodimlar" menyusida taalluqli bo'lgan OTM haqidagi ma'lumotlar, fakultetlar, kafedra, bo'limlar, professor- o'qituvchilar va xodimlar bazasi shakllantirilsin.

**Muddat: 2021 yil 20 sentyabr va doimiy.**

**O'quv – uslubiy bo'lim boshlig'i Sh.Sh.Massavirovga:**

**Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi, o'quv uslubiy va fakultet dekanlari:**

- bitiruvchi talabalarning diplom ma'lumotlarini tasdiqlash, QR-kodli diplomlarni chop qilish va talabalarga taqdim etilishi ta'minlansin.
- axborot tizimining "Infrastruktura" menyusida taalluqli bo'lgan o'quv binolari va o'quv auditoriyalari ro'yxati shakllantirilsin;
- axborot tizimining "Fanlar bazasi" menyusida taalluqli bo'lgan fanlar guruhlari va fanlar ro'yxatlari shakllantirilsin;
- axborot tizimining "O'quv jarayoni" menyusida taalluqli bo'lgan o'quv yillari, baholash tizimlari, baholar turlari, reyting qaydnomalari turlari, o'quv juftliklari ro'yxatlari hamda imtihonlar ro'yxati shakllantirilsin;
- axborot tizimining "Xodimlar" menyusida taalluqli bo'lgan professor-o'qituvchilarning malaka oshirish va lavozimga tanlovdan o'tish ma'lumotlari oliy ta'lim muassasasi darajasida monitoring qilinsin;
- axborot tizimining "Talaba harakati" menyusida taalluqli bo'lgan buyruqlar shakllantirilsin va oliy ta'lim muassasasi darajasida talabalar o'qishini ko'chirish amalga oshirilsin;\
- axborot tizimining "Reyting" menyularida taalluqli bo'lgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy faoliyat reyting mezonlari shakllantirilsin, fakultetlar, kafedralar va o'qituvchilar reytingi monitoringi o'tkazilsin;
- axborot tizimining "Statistika" menyularida taalluqli bo'lgan oliy ta'lim muassasasi darajasida talabalar va o'qituvchilar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar shakllantirilsin.

**Muddat: 2021 yil 25 sentyabr va doimiy.**

**Barcha fakultet dekanlari va magistratura bo'limi boshlig'i (B.T.Xalmatova, A.A.Xamraev, F.I.Salomova, I.I.Baxriev, R.A.Zokirxo'jaev, U.E.Eraliev, A.A.Imamov), xodimlar bo'limi boshlig'i v.v.b. F.X.Azizova.**

| | |
|---|---|
| **O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor** | **Sh.A.Boymuradov** |
| **Ilmiy va innovatsion ishlar bo‘yicha prorektor** | **F.L.Azizova** |
| **Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor** | **T.A.Bobomuratov** |
| **Davolash ishlari bo‘yicha prorektor** | **M.Sh. Karimov** |
| **O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i** | **Sh.Sh.Massavirov** |
| **Yuriskonsult** | **B.N.Shukurov** |

- Axborot tizimining "Talabalar" menyusida taalluqli bo‘lgan ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari, kvalifikatsiyalar va talabalar yutuqlarini, akademik guruhlar va talabalar bazasi shakllantirilsin;
- axborot tizimining "Talaba harakati" menyusida taalluqli bo‘lgan talabalaring o‘qishdan chetlashtirish va tiklash, talabalarga akademik ta’til berish, talabalar o‘qishini ko‘chirish, kursdan qoldirish, kursdan kursga o‘tkazish hamda o‘qishni bitirish ma’lumotlari shakllantirilsin, elektron buyruqlar yuritilsin;
- axborot tizimining "O‘quv jarayoni" menyusida taalluqli bo‘lgan o‘quv rejalar, o‘quv semestrlari, o‘quv haftalari va o‘quv reja fanlari shakllantirilsin, mashg‘ulotlar va nazoratlar jadvallari tuzilsin, imtihonlar ro‘yxati shakllantirilsin va nazorat qilinsin;
- axborot tizimining "Davomat" va "O‘zlashtirish" menyularida taalluqli bo‘lgan talabalarning mashg‘ulotlarga qatnashish davomati va fanlardan o‘zlashtirish natijalari monitoringi va tahlili qilinsin, elektron qaydnomalami yuritilsin, talabalarning GPA-ballarini hisoblash hamda talabalarga shaxsiy grafiklar berilsin;
- axborot tizimining "Xodimlar" menyusida taalluqli bo‘lgan professor-o‘qituvchilarning malaka oshirish va lavozimga tanlovdan o‘tish ma’lumotlari monitoringi qilinsin;
- axborot tizimining "Nazoratlar" menyusida taalluqli bo‘lgan talabalarning yakuniy davlat attestatsiyalarida bitiruv ishi yoki magistrlik dissertatsiyalari himoyasi natijalarini qayd qililishi va monitoringi olib borilsin;
- axborot tizimining "Akademik yozuv" menyusida taalluqli bo‘lgan talabalarning fanlardan o‘zlashtirish ma’lumotlari shakllantirilsin, bitiruvchi talabalarni akkreditatsiyadan o‘tkazish va diplom ma’lumotlarini shakllantirilib, diplom blanklari hisobi yuritilsin, bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalari mavzulari ro‘yxati hamda davlat attestatsiya komissiyalari ma’lumotlari shakllantirilsin, talabalarning transkript, o‘quv varaqa va akademik ma’lumotnomalarini tayyorlash va hisobini yuritilishi ta’minlansin;
- axborot tizimining "Reyting" va "Statistika" menyularida taalluqli bo‘lgan professor-o‘qituvchilar va kafedralar ilmiy faoliyat reytingi monitoringi qilinsin, talabalar va o‘qituvchilar to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlar shakllantirilishi ta’minlansin.

**Muddat: 2021 yil 25 sentyabr va doimiy.**

**Barcha kafedra mudirlariga:**

- axborot tizimining "Xodimlar" menyusida taalluqli bo‘lgan professor-o‘qituvchilarning malaka oshirish va lavozimga tanlovdan o‘tish ma’lumotlari kiritilishi va monitoringi olib borilishi ta’minlansin;
- axborot tizimining "Fanlar bazasi" menyusida taalluqli bo‘lgan joriy semestrda kafedraga tegishli fanlarning kalendar rejalari va mashg‘ulotlar mavzulari ro‘yxati shakllantirilsin;
- axborot tizimining "Akademik arxiv" va "Nazoratlar" menyularida taalluqli bo‘lgan talabalarning bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalari mavzulari ro‘yxati kiritilishi, davlat attestatsiya komissiyalari ro‘yxati

| | |
|---|---|
| **O'quv ishlari bo'yicha prorektor** | **Sh.A.Boymuradov** |
| **Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektor** | **F.L.Azizova** |
| **Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor** | **T.A.Bobomuratov** |
| **Davolash ishlari bo'yicha prorektor** | **M.Sh. Karimov** |
| **O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i** | **Sh.Sh.Massavirov** |
| **Yuriskonsult** | **B.N.Shukurov** |

shakllantirilishi va talabalarning bitiruv ishlari himoyalari natijalari tizimda qayd qilinishi ta'minlansin;

- axborot tizimining "Ilmiy faoliyat" menyusida taalluqli bo'lgan professor-o'qituvchilarning nashr etgan ilmiy va uslubiy ishlari, intellektual mulk hujjatlari hamda o'qituvchilarning xalqaro tizimlardagi ilmiy faolligi monitoringi olib borilsin;
- axborot tizimining "Reyting" menyusida taalluqli bo'lgan professor-o'qituvchilarning ilmiy faoliyat bo'yicha reyting ma'lumotlari monitoringi olib borilishi ta'minlansin.

**Muddat:2021 yil 10 oktyabr.**

**Barcha professor-o'qituvchilari:**

- axborot tizimining "Fanlar bazasi" menyusida taalluqli bo'lgan joriy semestrda o'ziga biriktirilgan fanlarning mashg'ulotlar mavzulari ro'yxati, fanlar mashg'ulotlari bo'yicha o'quv resurslari va ularning nazorat savollari shakllantirilsin, mashg'ulotlar bo'yicha nazorat topshiriqlarni tizimga yuklash va natijasini baholash ta'minlansin;
- axborot tizimining "Mashg'ulotlar" menyusida taalluqli bo'lgan dars o'tish va davomat jurnalida talabaning mashg'ulotlarga qatnashish natijalari doimiy shakllantirib olib borilishi ta'minlansin;
- axborot tizimining "Nazoratlar" menyusida taalluqli bo'lgan tegishli fan bo'yicha talabalarning joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari shakllantirilsin, imtihonlar ro'yxati va masalalarini tuzish hamda natijasi monitoringi olib borilishi ta'minlansin;
- axborot tizimining "Ilmiy faoliyat" menyusida taalluqli bo'lgan o'qituvchi tomonidan nashr etilgan ilmiy va uslubiy ishlami, intellektual mulk ob'ektlari hujjatlarini hamda xalqaro tizimlardagi ilmiy faollik ma'lumotlarini har o'quv yilida kiritib borilishi ta'minlansin.

**Muddat: 2021 yil 30 sentyabr.**

**Rakamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i A.K.Musaxonovga:**

- axborot tizimi o'rnatiladigan serverlarni ajratish, serverlarga zaruriy dasturiy vositalarni hamda axborot tizimini o'rnatish va sozlash, serverlarning doimiy 24/7 rejimida ishlashi va aloqaning uzluksizligi ta'minlansin;
- axborot tizimining "Tizim" menyusida taalluqli bo'lgan tizim foydalanuvchilari akkauntlari va rollarini boshqarish, tizim jurnalini nazorat qilish, ma'lumotlar sinxronizatsiyasini amalga oshirish, tizim interfeysi tarjimalarini shakllantirish, tizim klassifikatorlari va arxivlarini boshqarish ishlari ta'minlansin;
- axborot tizimini texnik qo'llab-quvvatlash va uzluksiz ishlashini, axborot xavfsizligini ta'minlash, tizimdan foydalanish bo'yicha treninglar o'tkazish va maslahatlar berish ishlari amalga oshirilsin;
- axborot tizimi administratorlari bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etilishi, tizimni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishi, tizimda kelib chiqadigan kamchiliklarni birgalikda bartaraf etilishi ta'minlansin.

**Muddat: doimiy.**

| | |
|---|---|
| O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor | Sh.A.Boymuradov |
| Ilmiy va innovatsion ishlar bo‘yicha prorektor | F.L.Azizova |
| Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor | T.A.Bobomuratov |
| Davolash ishlari bo‘yicha prorektor | M.Sh. Karimov |
| O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i | Sh.Sh.Massavirov |
| Yuriskonsult | B.N.Shukurov |

**Marketing va talabalar amaliyoti bo‘limi (Sh.A.Inakov):**

- axborot tizimining “Akademik arxiv” menyusida taalluqli bo‘lgan o‘qishni bitirgan talabalarning ishga joylashish ma’lumotlari shakllantirilsin va monitoringi olib borilishi ta’minlansin;
- axborot tizimining “Talabalar” menyusida taalluqli bo‘lgan qabul kvotalari shakllantirilsin, qabul natijalariga nisbatan kvotaning bajarilishi monitoringi olib borilsin.

**Muddat:2021 yil 10 oktyabr.**

**Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi (G.T.Djuraeva):**

- axborot tizimining “Ilmiy faoliyat” menyusida taalluqli bo‘lgan oliy ta’lim muassasasida bajarilayotgan barcha turdagi ilmiy tadqiqot loyihalari, ularning ijrochilari va yillik moliyalashtirish summalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar shakllantirilsin va monitoringi olib borilishi ta’minlansin.

**Muddat: 2021 yil 25 sentyabr.**

**Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i R.J.Matmurodovga:**

- axborot tizimining “Doktorantura” menyusida taalluqli bo‘lgan oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan tayanch doktorantlar va doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va ixtisosliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlar shakllantirilsin va monitoringi olib borilishi ta’minlansin.

**Muddat: 2021 yil 25 sentyabr.**

**Buxgalteriya (Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori F.B.Toshpo‘latov, Bosh xisobchi A.Sh.Yulchiev), Reja moliya bo‘limi boshlig‘i O.U. G’aipov**

- axborot tizimining “Moliyaviy faoliyat” menyusida taalluqli bo‘lgan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori, stipendiyalar turlari, shartnomalar turlari, bazaviy va tabaqalashtirilgan shartnoma koeffitsientlari, to‘lov shartnomalari shakllantirilsin va talabalarga taqdim qilinishi, shartnomalar to‘lovlarini kiritilishi va monitoringi olib borilishi ta’minlansin.

**Muddat: 2021 yil 25 sentyabr.**

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi – **2020/2021 o‘quv yilida akademiya fakultet va kafedralarining ilmiy, o‘quv va o‘quv-uslubiy ishlari bo‘yicha yillik monitoring natijalari** - mavzusidagi o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymurodovning ma’lumotlari ijro uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

3. Kun tartibining uchinchi masalasi - **Akademiya Ilmiy Kengashi qarorlarining bajarilishi holati va ijro intizomi** mavzusidagi jismoniy va yuridik shahslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi boshlig‘i

| | |
|---|---|
| **O'quv ishlari bo'yicha prorektor** | **Sh.A.Boymuradov** |
| **Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektor** | **F.L.Azizova** |
| **Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor** | **T.A.Bobomuratov** |
| **Davolash ishlari bo'yicha prorektor** | **M.Sh. Karimov** |
| **O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i** | **Sh.Sh.Massavirov** |
| **Yuriskonsult** | **B.N.Shukurov** |

A.Sh.Madjidovning hisobotlari ma'lumot uchun qabul qilinsin va qoniqarli deb hisoblansin (ma'ruza matnda keltirilgan).

4. Turli masalalar bo'yicha Menejment, tibbiy biologiya, tibbiy biomuhandislik va OMH fakul'teti dekani U.E.Eralievning **Toshkent tibbiyot akademiyasining "Menejment: sog'liqni saqlash menejmenti" va "Biotibbiyot muhandisligi" ta'lim yo'nalishlarini takomillashtirish** mavzusida va 1-son umumiy va bolalar xirurgiyasi kafedrasi mudiri A.O.Oxunovning **Toshkent tibbiyot akademiyasida yangi jurnalni tashkil etilishi** mavzusidagi ma'lumotlari axborot uchun qabul qilinsin (ma'ruzalar matnda keltirilgan).

4.1. Menejment: sog'liqni saqlash menejmenti" va "Biotibbiyot muhandisligi" ta'lim yo'nalishlarini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi masalalar bo'yicha - me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish, yuqori malakali kadrlar zahirasini tayyorlash, kafedralararo integratsiyasi, horijiy va mahalliy hamkorlik hamda moddiy ta'minot-takliflar kiritilsin va yo'l xaritasi ishlab chiqilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari prorektori Sh.A.Boymurodov, o'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori F.B.Toshpo'latov, Menejment, tibbiy biologiya, tibbiy biomuhandislik va OMH fakulteti dekani U.E.Eraliev, Xalqaro bo'limi boshlig'i M.M.Jafarov, Biotibbiyot muxandisligi informatika va biofizika kafedrasi mudiri M.I.Bazarbaev, Jamoat salomatligi va menejmenet kafedrasi mudiri G.K.Xudaykulova.**

**Muddat: 2021 yil noyabr.**

4.2. Akademiyada tashkil etilayotgan yangi jurnalni nomi ("Journal of scientific and educational medicine") hamda tashkiliy ishlar bo'yicha 1 oy muddat ichida takliflar kiritilsin.

**Mas'ul: O'quv ishlari prorektori Sh.A.Boymurodov, Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektori F.L.Azizova, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori F.B.Toshpo'latov, 1-son umumiy va bolalar xirurgiyasi kafedrasi mudiri A.O.Oxunov.**

**Muddat: 2021 yil oktyabr.**

4.3. TTA professor-o'qituvchilarining ilmiy-tadqiqot va o'quv ishlari natijalari bo'yicha maqolalari Akademiyaning jurnallarida chop etilishi faollashtirilsin (kafedralar kesimida Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasida yiliga 2 ta, Central Asian Journal of medicine – yiliga 1 ta va yangi jurnalda yiliga – 1 ta maqola).

**Qaror bir ovozdan qabul qilindi.**
**Rektorat Kengashi o'z ishini yakunladi.**

**TTA Kengash kotibi** **G.A. Ismailova**

| | |
|---|---|
| O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor | Sh.A.Boymuradov |
| Ilmiy va innovatsion ishlar bo‘yicha prorektor | F.L.Azizova |
| Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor | T.A.Bobomuratov |
| Davolash ishlari bo‘yicha prorektor | M.Sh. Karimov |
| O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i | Sh.Sh.Massavirov |
| Yuriskonsult | B.N.Shukurov |